



MAXSUS PEDAGOGIKA KADRLARNI TAYYORLASHNING UMUMIY
MASALALRI

Musayeva Dilfuza Abduraxmonovna

Maxsus pedagogikaning klinik asoslari kafedrasida o'qituvchisi

Kurbonova Marjona Kurbon kizi

Oligofrenopedagogika yo'nalishi 302-guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalar maxsus ta'limi, uning zamonaviy tendensiyalari, maxsus ta'lim o'qituvchilarini malakasini oshirishning dolzarb masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Maxsus pedagogika, rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bola, malaka oshirish, ta'lim, tarbiya, interaktiv ta'lim.*

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Ta'lim o'z ildizlarini ilm-fan va ishlab chiqarish, ijtimoiy turmush, bir so'z bilan aytganda, hayot bilan bog'lay olgan, ichki va turdosh tarmoqlar bilan har tomonlama integratsiyaga kirishgan taqdirdagina o'z oldiga qo'ygan natijalarga erisha oladi, fan, ta'lim-tarbiya va iqtisodiyotning o'zaro chuqur, har tomonlama uzluksiz aloqasini ta'minlay olgan va jamiyat hayotining barcha sohalariga tatbiq eta olgan davlat esa taraqqiyotga erishadi.

Bu borada mamlakatimiz ta'lim sohasida salmoqli ishlar amalga oshirilayotganligi hech kimga sir emas. Ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli yo'nalishlarini aniqlash, ayniqsa, pedagog kadrlarning kasbiy malakalari va bilim saviyasini uzluksiz yuksaltirish eng dolzarb masalalardandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar to'g'risidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham dolzarb masalalar qatorida ilm-fan va ta'lim, ta'lim va ijtimoiy-iqtisodiy hayot munosabatlariga alohida urg'u berilganligi bejiz emas.

Uzluksiz ta'lim chuqur, har taraflama asosli ta'lim-tarbiya berish, mutaxassis kadrlar tayyorlashning turli shakl, usul, vosita, uslub va yo'nalishlarining mukammal uyg'unligidan iboratdir.

Maxsus ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, muassasalarni zamonaviy bilimlarga ega mutaxassislar bilan to'ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekistonda hozirgi kunda vujudga kelgan shart-sharoitlar malaka oshirishning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni va bu jaraenga tegishli o'zgartirishlarni kiritishni taqozo etmoqda. Hozirgi dunyoda amalga oshayotgan global o'zgarishlar ta'lim va tarbiya sohasiga ham o'zining ta'sirini



ko'rsatmoqda. Bu bir tomondan, global o'zgarishlarni ob'ektiv jarayon sifatida inson hayoti sohalari ta'sirini xolisona o'rganishni taqozo etadi. Ikkinchidan, global o'zgarishlar ta'lim-tarbiya jarayonlariga ham o'zining ta'sirini ko'rsatayotganligi sababli uning bilan bog'liq bo'lgan yutuq va muammolarni bilish va tegishli xulosalar chiqarish amaliy ahamiyatga ega. Globallashtirish ta'lim-tarbiyaning axborot kommunikatsiya tizimi, internet tarmoqlari va zamonaviy pedtexnologiyalar bilan bog'liq yangi imkoniyatlar yaratib bermoqda. Ta'limni ana'naviy usullari o'rnida interfaol usullarni qo'llash orqali uni samaradorligiga erishish dolzarb bo'lib turibdi.

Darhaqiqat, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev so'nggi yillarda ta'lim sohasini isloh qilishga, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan takomillashtirishga, xususan, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etishga jiddiy e'tibor qarata boshladi. Bu boradagi islohotlar 2017 yil 14 martdagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 22 maydagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 8 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi, 2017 yil 30 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Prezident Qarorlarida o'z aksini topgan. E'tibor beradigan bo'lsak, mazkur qarorlarda uzluksiz ta'lim tizimining deyarli barcha turlari qamrab olinganligini ko'rishimiz mumkin. Qolaversa, "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da ham ta'lim sohasini tubdan takomillashtirishga e'tibor qaratilgan. Hozirgi zamon ta'lim-tarbiyasi, istiqloq mafkurasi ana shu merosdan oziqlansa, uning eng yaxshi sahifalarini, qoidalarini qabul qilsa, o'z oldiga qo'ygan maqsad-vazifalarini sharaf bilan bajarishi mumkin.

Xozirgi kunda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar soni tobora oshib bormoqda. Shu o'rinda ularning ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish masalasi dolzarb xisoblanadi. Mamlakatimizda rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan hamda davolanishga va sog'lomlashtirishga muhtoj bo'lgan bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, ularning ta'lim-tarbiya olishlarida moslashuv muhitini yaratish maqsadida imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari tashkil etilgan. Shu bilan birga, rivojlanishida turli nuqsonlari bo'lgan hamda davolanishga va sog'lomlashtirishga muhtoj bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish, sog'lomlashtirish va ijtimoiy muhofaza qilish, shuningdek, ularning ta'lim-tarbiya olishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish borasida mavjud ayrim muammo va kamchiliklarni bartaraf etish hamda olib borilayotgan ishlarni yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu borada munosib kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash va ularga bilim berishda faqatgina tibbiy adabietlardan foydalanish ko'p hollarda samarali emasligi, nevroptologiya darsliklari pedagoglar uchun bir muncha murakkabligi, yetarli darajada pedagogik faoliyat uchun moslashtirilmaganligi sababli ushbu qo'llanmadan foydalanishni lozim topdik. Tibbiyot fanini o'zlashtirish borasida orttirilgan pedagogik tajribalar, mohir pedagog va shifokorlar



ish usullari, S.S.Lyapidevskiy, N.M.Majidov, S.Dadamuhamedov, N.I.Xo'jaeva, A.U.Shoyusupova, M.M.Asadullaeva, S.N.Aslanova, V.Rahmanova, L.R.Mo'minova, M.Yu.Ayupova kabi olimlar samarali tadqiqot ishlari olib borishgan.

Imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim-tarbiyasini to'g'ri tashkil qilish, ularga differensial yondoshuvni amalga oshirish, ta'lim jarayonida samarali metodlardan foydalanish uchun jismoniy va psixologik xususiyatlarini bilish maqsadga muvofiq. Bu borada bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari fanining ahamiyati katta. Ushbu fanda bolalarda uchraydigan turli nuqsonlarning klinik ko'rinishlari, tasniflari va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida aniq, tizimlashtirilgan bilimlar beriladi.

Shu jumladan, eshitishida va nutqida nusoni bo'lgan bolalarda birlamchi nuqsonlar – patologiyalar soniga mansub bo'lganligi sababli ushbu fanning “Nevropatologiya” modulini o'rganishda innovasion ta'lim texnologiyalarini qo'llashni dolzarbdir.

Mazkur jarayonda pedagoglarning innovasion pedagogik faoliyatlarini tashkil qilish, ulardan zamonaviy talablarga javob beradigan yetuk va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash taqozo etildi. Chunki o'qituvchi shaxsi aynan dars jarayonini tashkil qiluvchi, auditoriyada innovasion o'zgarishlarni amalga oshiruvchi sanaladi.

Pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimi, xususan maxsus pedagogika sohasi ham bundan istisno emas. Har bir bolaning rivojlanishida yuzaga kelgan nuqsonlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda a ta'lim shaklini to'g'ri tanlash, yakka ta'sir vositalarini aniqlash uchun chuqur klinik o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Bu borada bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari fanining ahamiyati katta. Ushbu fanda bolalarda uchraydigan turli nuqsonlarning klinik ko'rinishlari, tasniflari va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida aniq, tizimlashtirilgan bilimlar beriladi.

Mukammal, zamon bilan xamnafas bo'lgan o'qituvchi dars jarayonida o'z talabalarini talim jarayoniga ijodiy yondashuv asosida qarashlarini tashkil qilishi, ularda mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish barobarida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo'ladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya asosida mashg'ulot berayotgan o'qituvchi didaktik o'yinlar, muammoli vaziyatlar, qiziqarli usullar, testlardan mashg'ulotning istagan vaqtida foydalanish mumkin.

O'qituvchining faolligiga yo'naltirilgan mashg'ulotning metodik ishlanmasidan tashqari ta'limning innovasion pedagogik texnologiyasi ta'lim oluvchilarga yo'naltirilgan bo'lib, shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda, o'quv materiallarini o'zlashtirishga qaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev SH.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – T.: O'zbekiston, 2019. 396-b.
2. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi // O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul



qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.

3. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. – Routledge, USA, 2012.

4. D.Madazizova. Bolalar rivojlanishidagi niqsonlarning klinik asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: TDPU – 2017.

5. Davletshin M.G va boshqalar, Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T-2004.

6. Golish L.V. “Zamonaviy ta’lim texnologiyalari: mazmun, loyihalashtirish va amalga oshirish”. Ekspress qo‘llanma. -T.: TESIS, 2001

7. Ishmuhammedov R. “Tarbiyada innovatsion texnologiyalar”. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2010 yil.

8. Jane Kettman, S.Harold Collins A world in the hand / An introduction to sing language. 2013

9. Maxkamova M., Kasimova Z. Yangi pedagogik texnologiyalar (o‘quv qo‘llanma). – T.: 2009 yil.

10. Michael Alan Taylor and Nutan Atre Valdya - 2009

11. Po‘latxo‘jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: TDPU – 2013.

12. Sodiqova Q, Aripova S.X, Shaxmurova G.A . Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. T.: “Yangi asr avlodi” - 2009.

13. Sodiqova G.Q. Bolalar nevrologiyasi T “Iqtisod-moliya” 2008 y.

14. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.I. “Ilg‘or pedagogik texnologiyalar”. –T.: O‘qituvchi, 2004 yil.

15. Бадалян, Л.О. Детская неврология / Л.О. Бадалян. – М., 1984.

16. Бадалян, Л.О. Невропатология: учеб. для студентов вузов / Л.О. Бадалян. – 7-е изд. – М.: Академия, 2012. – 400 с.